

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR
PAGES

JOCAA

МАДАНИЈАТ ВА САЊАТ

Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 3

MAY | 2023

КУЛТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-3>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиёв Иқбол

Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор

Ходжаметова Гулчира

Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов Фахриддин

Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз Турабович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур

Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида

Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудир, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон

Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло

Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи/Page Maker/Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-ўй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

XOLIQOVA Mahliyo Alisher qizi

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
tayanch doktoranti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7974038>

ИПАК МАТОСИНING XALQIMIZGA KIRIB KELISH TARIXI

ANNOTATSIYA

Margʻilonda shakllangan ipak matoning rivojlanishi, uning vatani boʻlmish Xitoyda keltirilishi va afsonalari, mato yaratilish jarayonidagi ketma-ketliklar, bugungi kunda faoliyat olib borayotgan korxonalar va hunarmandlar uyushmasi mahsulotlari. Matoda ishlatiladigan atamalarning maʼnolari.

Kalit soʻzlar: atlas, adras, shoyi matolar, ipak qurti, tut daraxti, tanda ip, arqoq ip, ab, hunarmandlar, gazlama.

KHALIKOVA Mahliya Alisher kizi

*Kamoliddin Behzod National Institute of Painting and Design
basic doctoral student*

THE HISTORY OF THE PENETRATION OF SILK FABRIC INTO OUR PEOPLE

ANNOTATION

The history of the introduction of silk fabric to our nation, the formation of silk cultivation, the production of fabrics from it, the types and names of fabrics, the definition of the word satin, its structure and the method of filling. And these fabrics used for.

Keywords: silk, atlas, adras, beqasam, banoras, abr, gas, paripashsha, shepherd, nimshoyi.

ХАЛИКОВА Махлия Алишер кызы

*Национальный институт живописи и дизайна имени Камолиддина Бехзада
базовый докторант*

ИСТОРИЯ ПРОНИКНОВЕНИЯ ШЕЛКОВОЙ ТКАНИ В НАШ НАРОД

АННОТАЦИЯ

Развитие шелковой ткани, сформировавшейся в Маргилане, ее цитирование и легенды в Китае, его родине, последовательности в процессе создания ткани, продукция предприятия и объединения ремесленников, действующих сегодня. Значения терминов, используемых в ткани.

Ключевые слова: атлас, адрас, шелковые ткани, тутовый шелкопряд, тутовое дерево, пряжа в загаре, веревочная пряжа, ab, ремесленники, газировка.

Marg‘ilon deganda, betakror tabiati, bog‘-rog‘lari, kamalakdek serjilo atlaslari, o‘zligimiz ramziga aylanib ketgan rang-barang do‘ppilari bilan yetti iqlimga mashhur bo‘lgan go‘zal bir makon ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Bu zamin azal-azaldan odob-andishali va bag‘ri keng, mehnatkash va tadbirkor, mehmondo‘st xalqi, mohir hunarmandlari, usta bog‘bonlari, xushovoz hofizlari bilan shuhrat qozonib keladi. Marg‘ilon shahrida an‘anaviy hunarmandchilik turlaridan biri bo‘lgan ipakchilik ham mahorat bilan davom ettirilgan. Marg‘ilon ipagini yanada ko‘paytirish va undan katta daromad olish maqsadida hukumat yangi Marg‘ilon shahrida ipak qurti laboratoriyasi tashkil etadi. Ipakchilikni rivojlantirishda uning sifatini yaxshilash bo‘yicha izlanishlar bilan bir qatorda mahalliy an‘analardan keng foydalanilgan. Ipak yetishtirish va sifati bo‘yicha Marg‘ilon Farg‘ona vodiysida birinchi o‘rinda turardi.

Eramizdan avvalgi 138-yilda Xitoy imperatorining topshirig‘i bilan qadimgi Davan davlatiga kelgan elchi Chjan Tsyun, Dalvarzintepa, Eylaton va Andijon shahrining Sarvontepa arxeologik majmuasi o‘rnida mavjud bo‘lgan qadimgi shaharlardan so‘ng Davan davlati, uning poytaxti hisoblangan Ershi shahriga keladi, (Andijondan 30chaqirim narida joylashgan) o‘sha davrlarda bu yerlar ayni taraqqiy topgan shahar bo‘lgan. Uning kelishi Xitoy bilan O‘rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlari o‘rtasida savdo-sotiq aloqalarining tiklanishiga sabab bo‘ladi. Yurtimizdan Xitoyga beda, uzum, gilam va uchqur otlar olib ketilgan bo‘lsa, u yerdan vodiya shoyi matolar, chinni, choy va boshqa buyumlar olib kelinadi [1].

Xitoyda shoyi kelib chiqishi bo‘yicha bir necha afsonalar bo‘lib eng e‘tiborlisidan biri keltirilgan. Buyuk imperatorning rafiqasi Shi Xuan Di - Ley Zu, so‘zlariga ko‘ra, tut daraxtining soyali toji ostida o‘t-o‘lanlar qaynatmasidan zavqlanib o‘tirgan paytida, to‘satdan xushbo‘y ichimlikka ipak qurti pillasi tushadi, bundan g‘azablangan imperator kozadan pillani olib chiqaradi va u yechila boshlaganini, ip sudralib borayotganini kuzatgan, go‘zal Ley Zu bu ipdan ip uchun ajoyib tolani olish mumkinligini taxmin qiladi. O‘shandan beri imperator "ipak xudosi" deb nomlangan. Bayramlarda, uning sharafiga, ibodatxonalarining qurbongohlariga ipak qurti pillasi ko‘rinishidagi qurbonliklar qo‘yildi.

Hikoyada aytilishicha, birinchi ipak qurti pillalari va ularning ajoyib xossalari deyarli besh ming yil avval xitoylar tomonidan kashf etilgan. Xitoyning turli hududlarida olib borilgan qazishmalarda miloddan avvalgi III-ming yillikka oid madaniy qatlamlardan ipak qurti pillalari topilgan. Hatto toshbaqa po‘stlog‘i va suyaklaridagi topilgan yozuvlarda "ipak qurti", "tut", "ipak" va "ipak mato" tushunchalarini bildiruvchi ierogliflar mavjud bo‘lgan.



Arxeologlar Sarvontepadan topilgan va miloddan avvalgi davrga taalluqli bo‘lgan sopol buyumlarda mato izlarini aniqlashdi. Bu qadimgi Andijonda paxtadan mato to‘qish yo‘lga qo‘yilganligidan dalolat berar edi. Keyinchalik esa ajdodlarimiz Xitoyda o‘ta sir saqlangan ipak yetishtirishni ham o‘zlashtirishdi. U yerdan tut daraxti olib kelinib, ipak qurti parvarishlandi. Ushbu an‘ana vodiya, xususan, Andijonda hozirgacha saqlanib qolgan.

O'sha paytda yetishtirilgan pilladan ipak olish yo'lga qo'yilib, undan shoyi matolari tayyorlangan. Keyinchalik esa dunyoda qiyosi bo'lmagan atlas to'qilib, kamalakning yetti rangida jilovlanuvchi ushbu mo'jizakor matolar karvon yo'li orqali Yevropa mamlakatlariga ham yetkazib berilgan.



Atlas 1920-yillargacha Marg'ilon, Xo'jand, Buxoro, Samarqand va boshqa joylarda to'qilib, O'rta Osiyo bozorlaridan tashqari Afg'oniston, Xitoy kabi qo'shni mamlakatlarda ham sotilgan.

Ipak matolar orasida eng mashhuri abrli atlas va xonatlasdir. Ularning o'ziga xosligi - bezak va gullar matoga emas, balki o'rish ipining o'ziga chiziladi. Aytaylik, uzunligi 200 metr, eni 40 santimetr atlasni to'qish uchun 3600ta ipak tolani bir-biri bilan uyg'unlashtirish lozim. Bitta tola uzilsa ham mahsulot sifatiga putur yetadi. Shu bois matoga yangi element qo'shish juda qiyin.

Atlas (arabcha - tekis, silliq)- tanda ipi ham, arqoq ipi ham tabiiy ipakdan to'qiladigan bir yuzlama silliq mato. Tanda ipi abrbandi usulida bo'yab bezatiladi. Alohida ishlov berib Atlasga jilo beriladi, shunga ko'ra u tovlanib turadi. Ilgari mato yuziga kudung urilgan, hozirgi kunda Atlas issiq sathli baraban- kalandrdan o'tkaziladi. O'zbek atlaslari rang-barang nafis gullarga boy, bu gullar bir-biri bilan uyg'unlashib, matoda yaxlit go'zal bir naqshni hosil qiladi. Atlasning tabiiy ipakdan to'qilgan eng a'lo navi sakkiz tepkili xonatlas deb ataladi. Xonatlasning barcha siri uning tuzilishi va to'qilish usulidadir. Atlasning to'qilish jarayoni: to'rt tepkili Atlas to'rt tepkili dastgohda, sakkiz tepkili Atlas sakkiz tepkili dastgohda to'qiladi.

Atlas matolar orasida ko'pincha ishlatiladigan so'z bu abr naqsh bo'lib, "Abr" atamasi fors tilida bulut deb tarjima qilinadi. Naqsh nomi sifatida XVI asr adabiy ma'lumotlarda uchraydi. Birinchi afsonaga ko'ra abr naqshlari xovuz suvida yuguruvchi bulutlarni taqlidi, ikkinchisiga ko'ra xovuz suvida to'kilgan yog'ni yoyilgan dog'larning taqlidi bo'lgan. Ehtimol bu tasvirlar ilk bor kamalakni aks ettirgan qadimiy kashta "Abri - bahor" kabi bo'lgan. Abr usuli murakkab va sermehnat bo'lgani bois faqat shoyi va nimshoyi gazlamalar ishlashda qo'llanilgan.

Adras - tanda ipi tabiiy ipakdan, arqog'i qalin ipdan to'qilgan gazlamadir. Guli ikki tomonlama bo'lganligi uchun ayrim joylarda duro'ya deb ataladi. Kudunglanish natijasida yuqori navli adrasning bir tomoni atlasday silliq bo'lib, ikkinchi tomoni tovlanib turadi. Gullari abr usulida bo'lib, sariq, ko'k, pushti, qizil ranglar qo'llanilgan

Shoyi va nimshoyi matolar - beqasam, adras, yakro'yo, katak shoyi, tovlanma shoyi, abrshoyi va hokazolarga turli-tuman gular solingan.

Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan va boshqa shaharlarda an'anaviy o'zbek ipak (kanovuz, shoyi, xonatlas), nimshoyi (beqasam, banoras, adras) gazlamalar to'qilib, ulardan tikilgan turfa kiyimlar o'ziga to'qroq, boy-badavlat kishilar orasida rasm bo'lgan.

Toshkent kosiblari bo'z yoki karbos (oddiy bo'yalmagan ip gazlama), bosma (ko'proq qizil tusdagi gulli bo'z), olacha (bo'yalgan ipdan to'qilgan yo'l-yo'l ip gazlama), chopon tikishda qo'llaniladigan yo'l-yo'l nimshoyi matolar tikishda mohir edilar [2].

Qadimda Atlaslar dastaki dastgoh (qo‘l do‘kon) larda to‘qilgan. Hozir dastaki dastgohlarda ham, mexanik dastgohlar (to‘quv stanoklari) da ham to‘qiladi. Mexanik dastgohlarni elektr dvigatel harakatlantiradi.

O‘tmishda Atlasning bir kiyimligi yaxlit holda ham, ikki bo‘lakka bo‘lib ham sotilgan. Ikki bo‘lakka bo‘lingan Atlasning har bir bo‘lagi bir toqa Atlas, ikkala toqasi (bir kiyimligi) bir jo‘ra Atlas deb nomlangan. Atlasni toqa-jo‘ra qilish 1930-yillarda urfdan qoldi. Atlas to‘qish Marg‘ilonda rivojlangan, boshqa joylarga shu yerdan tarqalgan. XX - asr boshlarida bu yerda yuzlab Atlas to‘quvchi kosiblar bo‘lgan, 20-yillarda ular 4ta sanoat artellariga uyushgan. 1963 yilda bu artellar birlashtirilib yirik korxonaga- “Atlas” firmasiga aylantirildi. 1976 yildan Marg‘ilon Atlas ishlab chiqarish birlashmasi. Atlas to‘qish, ayniqsa, Namangan (Namangan shoyi ishlab chiqarish birlashmasi), Xo‘jandda, shuningdek Andijon, Qo‘qon, Samarqand shaharlarida rivoj topgan.

Bugungi kunga kelib, Marg‘ilon shahrida hunarmandchilikning 17 ta turi bilan hunarmandlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning asosiy yo‘nalishlari - milliy matolar (adras, atlas) va ulardan tikuvchilik buyumlar ishlab chiqarish, milliy poyabzal ishlab chiqarish, yog‘ochsozlik, yog‘och o‘ymakorligi, do‘ppido‘zlik, to‘nchilik, temirchilik, misgarlik hisoblanadi.

Shaharda “O‘zbekipaksanoat” va “Hunarmand” uyushmalari xamkorligida eksport kilishga mo‘ljallangan “SILK IKAT AND CARPET” MChJ tashkil etilib, ipak gilam va atlas adras ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Mohir usta hunarmand Ibrohimjon Sultonov tashabbusi bilan davlat-xususiy sheriklik asosida Hunarmandlar markazi qurilib, foydalanishga topshirildi. 600 nafar usta faoliyat boshlab, 200 ortiq turdagi atlas va adras to‘qish, gilamchilik, maishiy xizmat, tikuvchilik, hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Ular tomonidan 2 mingga yaqin xotin-qiz, yoshlar ishga jalb etildi. Ikki qavatli markazning quyi qavatida atlas, adras, shoyi, baxmal, beqasam matolar to‘qiladi. Birinchi qavatdan tayyor mahsulotlar ko‘rgazmasi, podium, chevarxona o‘rin olgan. Bu yerdagi do‘konda matoga gul chizish, bog‘lash, qadimiy matolarni tayyorlash jarayonlari ko‘rgazmali tarzda namoyish etiladi.

Binoning yuqori qavatida gilam sexi joylashgan. Bu yerda barcha mahsulotlar to‘liq qo‘l mehnati yordamida, 100 foiz toza ipakdan to‘qiladi [3].

Atlas to‘qish jarayonidagi ketma-ketliklar:

I. Dastlab 15 kg xom ipak maxsus uskunada yigirib olinadi.

II. Xom ipak shirasini ketkazish maqsadida ishqorga solinib, qayta ishlanadi va g‘altaklarga o‘raladi.

III. Davra dastgohida bir usta, ya’ni davrakash kun davomida g‘altakdagi ipaklardan 300 metr atlas uchun kerakli o‘lchamdagi tandani tayyorlaydi.

IV. So‘ngra davradan olinib, alohida-alohida o‘lchamlarda qatlanadi.

V. Matoda naqsh va gul chiqarish uchun ipak tolalar abrband dastgohiga tortiladi.

VI. Abrband dastgohiga tortilgan iplarga usta gul soladi, naqshu nigorning qanday chiqishi, albatta, uning mahorati va zehniga bog‘liq.

VII. Bo‘yoq berilmay oq rangda qoladigan joylari birma-bir bog‘lab chiqiladi. Chunki bo‘yash jarayonida aynan o‘sha qismlarga rang tegmasligi kerak.

VIII. Ipak tolalar abrbanddan yechib olinib, qozonda qaynab turgan bo‘yoqqa solinadi.

IX. Tolalar quyoshda ikki kun quritiladi, qish mavsumida bu ish ustadan ko‘p vaqt va mehnat talab etadi.

X. Qurtilgan tandalarni qaytadan bir-biriga qo‘shish payti avval bog‘langan qismlari yechilib, gulabadorlik jarayonida yetti to‘quvchi 150-200 metrgacha tarang tortadi va kerakli o‘lcham bog‘ichlarini bog‘lab qo‘yadi.

XI. Gulabadorlik nihoyasiga yetgach, o‘lchab olingan tanda qo‘ldo‘kon dastgohiga bog‘lanib, matoni to‘qish boshlanadi. Mohir usta bir kunda 6 metrdan 10 metrgacha atlas to‘qishi mumkin. 300 metrlik namozshomgul atlasini tayyorlash uchun bir oy vaqt ketadi.

XII. Ipak matolarni tayyorlashda tabiiy bo‘yoqlar - yong‘oq, anor va piyoz po‘sti ishlatiladi. Atlas va adrasning ranglari issiq-sovuqqa chidamli bo‘lib, har qanday ob-havoda ham o‘zgarmaydi [4].



Mavzu yakunida xulosa qilib aytish mumkinki, milliy matolarimiz doim qadrlanib kelgan sababi unga ketgan mehnat mashaqqat juda qadrlı bo‘lib, yaratilgan mahsulot ham o‘zining jozibasi bilan inson e‘tiboridan chetda qolmaydi. Moddiy va ma‘naviy merosimiz hisoblanmish matolarni bugungi kunda dunyo bo‘ylab mavqei va obrosi juda baland bo‘lib, respublika hududidan tashqari-xorijiy mamlakatlarga ham chiqarilmoqda.

Shu vaqtgacha matolar 1967 yilda Monreal (Kanada)da o‘tkazilgan xalqaro ko‘rgazmada, 1978 yilda Yugoslaviyaning Zagreb shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro yarmarkada xonatlas Oltin medal bilan mukofotlandi. Toshkent modellar uyida xonatlasdan tikilgan tayyor kiyimlar, 1970 yilda Yaponiya (Osako)da, 1987 yilda Budapesht kuzgi yarmarkasida, 1988 yilda Bag‘dodda, 1989 yilda Hindiston (Dehli) da bo‘lib o‘tgan xalqaro yarmarkalarda, AQShning Vashington (1998) va Chikago (1999) shaharlarida xususiy yig‘imlardagi o‘zbek Atlaslari namoyish etilgan.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. R.Shamsutdinov, A.Ishoqov Andijon tarixidan lavhalar Sharq nashriyoti, T.- 2013y.
2. M.Xoliqova, “O‘zbekistondagi an’anaviy va badiiy to‘qimachilik shakllanishi”. O‘zbekistonda fanlararo innavatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 16-son. T.- 2023y.
3. N,Sodiqova.O‘zbek milliy kiyimlari XIX-XXasrlar. Sharq nashriyoti. T.-2003y.
4. Uz.arxiv/O‘zbekiston badiiy gazlamalari.
5. O‘zME. Birinchi jild. T.-2000y.
6. Xalq so‘zi. Rasmiy kanal
7. Oyina.uz

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz